



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
tarbiya fani o'qutivchisi

_____ *ning*
2023-2024-o'quv yiliga 4-sinflar uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

2023-2024-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Vatan madhi	1		
2.	O‘zbekiston - ko‘p millatli davlat	1		
3.	Mard va jasur inson - Vatanning tayanchi	1		
4.	Bobolarimizning bebaho merosi	1		
5.	Maktab - eng ulug‘ dargoh	1		
6.	Kitob - buyuk donishmand	1		
7.	Kitob - buyuk donishmand (amaliy mashg‘ulot)	1		
8.	Bilim - tengsiz xazina	1		
9.	Takrorlash	1		
II chorak				
10.	Vatan bayrog‘ini baland tutaylik	1		
11.	Yaxshilik qilish hikmati	1		
12.	Imkoniyat va matonat	1		
13.	Imkoniyat va matonat (amaliy mashg‘ulot)	1		
14.	Rostgo‘ylik	1		
15.	Halollik - muvaffaqiyat kaliti	1		
16.	Nazorat ishi / takrorlash	1		
III chorak				
17.	Halollik - muvaffaqiyat kaliti	1		
18.	Tilga hurmat - elga hurmat	1		
19.	Tejamkorlik	1		
20.	Tejamkorlik (amaliy mashg‘ulot)	1		
21.	Fazilatlar - inson ko‘rki	1		
22.	Muvaffaqiyat - bir jamoaga aylanishda	1		
23.	Barcha insonlar qonun oldida tengdirlar	1		
24.	Xavfli vaziyatlarda nima qilish kerak?	1		
25.	Xavfli vaziyatlarda nima qilish kerak? (amaliy mashg‘ulot)	1		
26.	Takrorlash	1		
IV chorak				
27.	Baxt oiladan boshlanadi	1		
28.	Oilaviy kitobxonlik - muvaffaqiyat poydevori	1		
29.	Ona - ulug‘ zot	1		
30.	Sog‘liq - katta boylik	1		
31.	Sog‘lom hayot uchun zarur kun tartibi	1		
32.	Insonni xotirlash - milliy qadriyat	1		
33.	Nazorat ishi / takrorlash	1		
34.	Umumlashtiruvchi dars: Men 11 yoshdaman	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Vatan madhi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarga vatan madhi mavzusi haqida tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O'zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo'lib voyaga yetkazish.

Tarbiyaviy: odob-inson ko'rki va ma'naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma'rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o'g'itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o'zbekona urf-odat va an'analarning milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

jamoat joylarida o'zini tutish odobiga rioya qilish, xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so'zlarni aniq va tushunarli bayon qila olish;

nutq va muomala madaniyatiga rioya qilish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

o'zining o'quvchilik burch va huquqlarini bilish hamda unga rioya qilish, jamiyatda (maktabda, oilada, mahallada) bo'layotgan jaryonlarda ishtirok etish;

Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ta'lim muassasida o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. O'z oilangiz haqida gapirib bering.

2. Nima uchun kattalar «o'z oilasini sevgan inson mahallasini sevadi, mahallasini sevgan inson o'z yurtini sevadi» deyishadi?

3. Qanday insonni o'z yurtini sevadigan inson deyish mumkin?

4. O'z yurtiga bo'lgan sevgini nimalarda namoyon qilish mumkin?

5. O'z yurti uchun fidoyi bo'lgan insonlardan kimlarni bilasiz?

Ulug'bekning ota-onasi chet elga xizmat safariga ketishdi. Ulug'bek 4-sinfda o'qishni avstraliyalik tengdoshlari bilan boshladi. Yangi do'stlar ortirdi, shaharning xushmanzara joylari unga juda yoqdi. Lekin u har doim o'zida nimadir yetishmayotganligini his etar edi. U, ko'pincha, tushida o'zi tug'ilgan hovlisi, yaqinlari, do'stlarini ko'rar, ularni sog'inari edi. Dadasi Ulug'bekning kayfiyatini

tushunib: «Vatan bizsiz kunini ko‘raverishi mumkin. Vatan yuzlab va minglab odamlarsiz ham yashaydi. Ammo biz yer yuzining qayerida bo‘lishimizdan qat’i nazar, o‘sgan yurtimizni sog‘inamiz», - dedi o‘rtanib.

Qadim zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. Lining ishlab topgani kun ko‘rishiga ye tar ekan. Dehqon oilasi bilan tinch-totuv kun kechirar ekan. Kunlarning birida dehqon yer chopayotib makkajo‘xori donidek keladigan yaltiroq tosh topib olibdi. Zargarga olib borsa, bu qimmatbaho tosh olmos ekanligini aytibdi. Toshni zargarga katta pulga sotibdi. Pullarni ko‘rgan dehqon shosha-pisha: «Bunday toshni yana qayerdan topsa boladi?» - deb so‘rabdi. «Tog‘ konlaridan-da», deb javob beribdi zargar. Dehqon tog‘ga chiqib ketibdi. Bir umr dehqonchilik qilgan dehqon kon qidirishga uquvi bolmaganligi sababli sarson-sargardon bo‘lib, ortiga qaytibdi. U yana o‘zining avvalgi dehqonchiligini qila boshlabdi. Yerga yaxshilab ishlov beribdi. Peshona terisini artib, birpas dam olish uchun o‘tiribdi. Shu payt ko‘zi yarq etgan toshga tushibdi. Yaxshilab qarasa, avvalgi topganidan ham katta olmos ekan. Dehqonning hovlisida bunday olmoslar ko‘p ekan. Demak, asl rohat o‘z kasbiga, ona Vatanga sadoqat bilan mehnat qilishda ekan.


1. Yaxshi farzandning qanday xislatlari oilasiga rahmat olib keladi?
2. Odobli farzand bo‘lish uchun nima qilish kerak?
3. Vatan haqida qanday she‘rlar bilasiz?
4. «Ona Vatanda azizdir inson» deganda nimani tushunasiz?
5. Qo‘shimcha o‘qish uchun berilgan matnni oila a‘zolaringiz bilan o‘qing.
6. Sabr, qanoat, imkoniyat haqida maqollar, ibratli fikrlar topib, daftaringizga yozing.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?
2. Hikoya yuzasidan qilgan xulosangizni quyida berilgan hikmat bilan bog‘lab ko‘ring.
3. Matn asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping va o‘rniga qo‘ying:
... yuzlab va minglab odamlarsiz ham... . Ammo biz yer yuzining qayerida bo‘lishimizdan qat’i nazar, tug‘ilib o‘sgan yurtimizni.
4. «Men uyimni sog‘inaman» mavzusida kichik hikoya tuzing.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekiston - ko‘p millatli davlat

Darsning maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quchilarga O‘zbekiston - ko‘p millatli davlat mavzusi haqida tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O‘zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo‘lib voyaga yetkazish.

Tarbiyaviy: odob-inson ko‘rki va ma‘naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma‘rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an‘analarining milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi, har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish va o‘zini nazorat qila olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish elementlari shakllantirish; jamoat joylarida o‘zini tutish odobiga rioya qilish;

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Kech bo‘lganda ota-onamning shoshilib chiqib ketishlaridan bezovta bo‘ldim. Ular ertalabgacha qaytishmadi... Maktabdan kelib onajonimni qattiq sog‘inganim bois, ularga qo‘ng‘iroq qildim. Dadajonimning pichirlab gapirishlaridan hech narsani tushunmadim. Opamning aytishlaricha, onajonimning ustozlari qattiq betob bo‘lib qolibdilar. Butun umrini oliy ta‘lim muassasasida talabalarga dars berish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga bag‘ishlagan bu rus ayolining farzandlari chet davlatga ish bilan ketgan ekan. Ota-onam ularni so‘nggi yolg‘a kuzatishga bosh bo‘lishibdi. Kechqurun juda xafa bo‘lib qaytgan onajonimdan: «Nega xafa bo‘lasiz? Ular bizning qarindoshimiz



bilan si
ay

emas-ku, ularning odatlari ham, millati ham boshqa-ku?» deb so'radim. Bir zum indamay turgan dadajonim: «Bolam, biz insoniylik burchimizni bajardik», - deb berdilar.

Biz yangi uyga ko'chib o'tdik. Yuklarimiz ortilgan mashina uying yo'lagida to'xtadi. Sport maydonchasida to'p o'ynayotgan bolalar biz tomonga chopib kelib, yordam bera boshlashdi.

Yangi qo'shnilar orasida koreys millatiga mansub, o'zbek tilida juda chiroyli gapirayotgan bola mening e'tiborimni tortdi.

«O'zbek tilini qayerdan bilasan?» – qiziqib so'radim boladan. «Dadam har doim: «Biz O'zbekistonda yashaymiz, bu yurtning urf-odatlarini hurmat qilishimiz kerak», – deb uqtiradilar», – dedi suhbatdoshim. Men u bilan qalin do'st bo'lib qoldim.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Siz nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonda yashayotgan odamlarni nima birlashtirib turadi?
2. Bir joyda yashaydigan insonlarga totuv, birdam, ahil bo'lish nima uchun kerak?
1. Sizing mahallangizda qaysi millat vakillari istiqomat qilishadi?
2. «Bolam, biz insoniylik burchimizni bajardik» degan gapni siz qanday tushundingiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Tarbiya fanidan 4-sinflarga konspektni to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.


Narxi: 25 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**